

**G'AFUR G'ULOM IJODI HUQUQSHUNOS TALABALAR NIGOHIDA**

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti  
1-kurs B potok 3-guruh talabasi  
Maxmudov Mehrozbek*



**G'AFUR G'ULOM**  
(1903-1966)

Joriy 2022-2023 o'quv yilida Toshkent davlat yuridik universitetiga talabalikka qabul qilindim. Bu eng katta quvonchim bo'lgan bo'lsa, TDYUda adabiyot va huquqshunoslik fanlarining o'zaro uyg'unligini ko'rGANIM esa, hayajonimni oshirdi. Chunki, 2023-yil "Insonga e'tibor va sifatli ta'llim yili" deb e'lon qilinganida, eng katta e'tibor insonga, uning sha'ni, qadr-qimmatiga berilgani G'afur G'ulom ijodining asosiy, bosh g'oyasidir. Sifatli ta'llimga oid o'zbek shoiri G'afur G'ulom: A'lo mamlakatning a'lo farzandi, Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!- degan misralari bejizga yozilmagan. Vatavparvarlik biz yoshlarga yaratilgan yangi shart-sharoitlarda ilm olish, yaxshi mutaxassis bo'lib vatan ravnaqiga hissa qo'shishga chorlavchi qadriyatlardan biridir. Bu hissiyotni o'z qalbiga singdira olgan har bir insonning kelajagi porloq. Yurtini sevgan, uning kelajagiga ishongan har bir yosh uchun yurt taraqqiyotini taminlashga ulush qo'shish asosiy maqsad bo'lmog'i zarur. O'zbek adabiyoti rivojida alohida o'z orniga ega bo'lgan shoir va yozuvchi G'afur G'ulom yaratgan asarlar xalqimizning beba ho xazinasi bo'lib qolgan. G'afur G'ulom taxallusi bo'lib, asl nomi G'ulomov G'afurdir. G'afur G'ulom 1903-yilning 10-mayida Toshkent shahrining Qo'rg'ontegi mahallasida tug'ilgan. 1963-yilda O'zbekiston xalq shoiri sifatida tanilgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi bo'lgan. G'afur G'ulomning ijodiy tadriji 3 davrdan iborat. Birinchi davrida G'afur G'ulom ko'plab she'r va maqola yozgan. Ikkinci davri ikkinchi jahon urushi yillariga bag'ishlangan bo'lib, xalq va mamlakat hayoti aks etgan asarlarini qamrab olgan. Jumladan, urush yillarida ota-onasiz kirlib, O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan bolalar haqidagi «Sen yetim emassan» she'reti yuksak insonparvarlik g'oyasini ifoda etgan.

Mazkur g'oyalarni yosh avlodga targ'ib etish esa, yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat kontseptsiyasini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, Toshkent davlat yuridik universiteti talaba yoshlari uchun G'afur G'ulom nomidagi maxsus stipendiya hamda ko'krak nishonini ta'sis etilgani, bo'lajak huquqshunoslarda G'afur

G'ulom ijodiga bo'lgan qiziqishni tobora oshirmoqda. Ayniqsa, huquqshunoslik bilan adabiyotning uyg'unligi biz talabalarni she'riyatga, adabiyotga bo'lgan e'tiborimizni kuchaytirmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustdagagi «Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o'rtasida targ'ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda undagi vazifalar bo'ldi. Jumladan, qarorda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, universitetda G'afur G'ulom ijodini keng targ'ib qilish yo'lga qo'yildi. TDYUda mutasaddi rahbarlar hamda professor-o'qituvchilardan iborat ijodiy guruh tuzilgan. Shu bois, talabalar o'rtasida tez-tez akademik-shoir G'afur G'ulom ijodini o'rganish va tadqiq etishga oid tadbirlar o'tkaziladi. Men ham, ana shu ilmiy-ma'naviy yo'nalishga qiziqdim hamda mustaqil G'afur G'ulom ijodini o'rganishga kirishdim. Quvonarli tomoni shundaki, akademik shoir G'afur G'ulom she'riyati serqirraligi, rang-barangligi bilan ajralib turishiga amin bo'ldim. Qaysi sohaga oid asarini o'rgansam, yangilikka duch keldim. Mana joriy yilda 30-iyulda ilk bora "Xalqlar do'stligi" kuni nishonlandi. Shu fursatdan foydalanib, xalqlar do'stligiga oid she'rlarni o'qiganimda G'afur G'ulom o'zbek va tojik xalqlarining do'stligi va qardoshligi to'g'risidagi fikr-mulohazalarini ko'rdim. Masalan, juda ko'p o'zbek oilalarida tojik kelinlar, tojik oilasidagi o'zbek kuyovlar to'g'risida shoirona fikrlarni bildirgan ekan:

"Xalqlar do'stligining gullar bog'idek

Ardoqlab bitdingiz ash'orlar bisyor.

O'zbek tojik qizin ko'z qarog'idek

Kelinim deganda aytilar yor-yor".

Qarang-a, bugun Markaziy Osiyoda chegralarimiz ochiq, quda-anda degan qadriyatlarimiz saqlanib kelmoqda. Turli millat vakilli yagona oila bag'rida tinch yashashi, kelin-kuyov munosabatlari o'z davridayoq shoir G'afur G'ulom tomonidan madh etilgan.

Ikkinci holat esa, ma'lumki joriy yilning avgust oyida davlatimiz rahbari mehribonlik uylarida bo'lib, "Mehr" daftari haqida gapirar ekan, har bir tarbiyalanuvchiga alohida e'tibor berilishini, ayniqsa, Milliy gvardiya tizimini mazkur mehribonlik uylarida mas'ul etib belgilagani "Sen yetim emassan" she'rining mantiqiy amaliy ifodasi deb bildim. O'z davrining dolzarb asari yosh avlodni tarbiyalashdagi qudratli kuch haqida so'zlovchi "Yo'Idosh" dostoni bo'lgan. Fuqarolik urushida yaqinlari Yo'Idoshdan ayrıldi. Boshqa yetim bo'lib qarovsiz qolgan bolalar kabi, bu bolakayga ham davlat g'amxo'rlik qiladi — ular uchun boshpana bo'lgan internatlar va bolalar uylari yaratishadi. Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari o'z Vatani mustaqilligi himoyasi uchun doim tayyor turishadi. Dostonda katta mahorat va iliqlik ila Yo'Idoshning otasi bilan uchrashuvi aks etilgan, o'z qarziga vafoli insonlar siymosi chuqur va keng ochib berilgan. Vatan himoyachisi mavzusi G'ofur G'ulomning 1941 – 1945 yillardagi keyingi ijodida yanada rivojlandi va chuqurlashdi. Shoir urushdan keyingi davrlardagi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida o'zbek ayolining o'rnini tarannum etadi. Uchinchi holat esa, G'afur G'ulomning (1941 y. 26 iyun) yozilgan "Men yahudiyan" she'ri o'sha davrdayoq jahonshumul she'r bo'lgani meni hayratga soldi. Bu

ikkinchi jahon urushi avj olgan fursatda gitlerchilar yahudiy xalqini butunlay qirib yo'q qilib tashlamoqchi bo'lib o'z vahshiyliklarini kuchaytirgan paytida yozilgan bo'lib, butun dunyo ahlini fashizmga qarshi ko'targan g'oya va kuch bo'lganiga ishonaman. Hozir ikkinchi jahon urushi tugaganiga, fashizm illatining yo'q qilib tashlanganiga yetmish besh yil to'lgan vaqtida ham G'afur G'ulomga hurmat va ehtirom bilan Isroil davlatining shahrida unga haykal o'rnatilgani shoirning fashizmga qarshi jangovor kurashchi bo'lgani avlodlar xotirasida saqlanayotganidan darak beradi. G'afur G'ulomning asarlaridagi inson taqdiri, inson manfaati, insonparvarlik tamoyili asosida yoritilgani bo'lajak huquqshunoslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, fuqaro va davlat bir-biriga nisbatan mavjud bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdir. Fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir. Bu tamoyilning ma'naviy asosi G'afur G'ulom she'riyatidir. O'zbekiston Respublikasida odamlarning millatiga, diniga, ijtimoiy ahvoliga, siyosiy va boshqa e'tiqodiga qarab cheklashlar yo'q. Chunonchi, Konstitutsianing eng muhim qismlaridan bo'lgan ikkinchi bo'limi inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag'ishlangan. Davlatimiz Asosiy qonunining yana o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, u faqat O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, balki O'zbekistonda istiqomat qiluvchi barcha insonlarning muqaddas va daxlsiz huquqlarini kafolatlaydi. Qarangki, bugun "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" tashkil etib, har bir inson sha'ni, qadr-qimmati ulug'lanmoqda. Bu holat xam G'afur G'ulom ijodida o'z ifodasini topgan. Jumladan, "Mening o'g'rigina bolam" nomi ostida jamlangan qissalar va hikoyalar o'zbekona hayot tarzi, insonlardagi mehr-oqibat kabilarning qimmatli ne'mat ekanligini anglatadi. Taqdir boshlagan ko'chalarning so'qmoqlaridan bir-bir o'tib, unda o'z yaqinlarini ko'rgandek bo'ladi. O'zbek xalqining necha asrlardan beri meros bo'lib kelayotgan urf-odatlari ichidan eng qadrlisi-mehmondo'st xalqni ko'rish mumkin. Yana bir serqirra ijod namunasi sifatida G'afur G'ulom, Pushkin, Lermontov, Griboedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmet, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va

boshqalarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilagani taxsinga loyiqliqdir.

Tariximiz bilan asari Netay" qissasi — keng ijtimoiy umumlashmalarga boy ajoyib asar. Asarda haqiqiy milliy davlatchilikka xos voqeа qo'yilgan. So'nggi Buxoro amiri Peterburgga safari chog'i Toshkentda to'xtaydi. Amir mamnun va xursand bo'lishi uchun boylar hamma narsa qiladi. Uning huzuriga ermak uchun Netay ismli qizni keltirishadi. Oddiy ishchilar timsoli yoqimli tarzda ifodalangan — urug'lar va ularning ayollari hayotning qiyinchiliklariga qaramay, ma'nан boy va juda ta'sirchan bo'lgan Netay ismli o'n yashar qizni boqib olishadi. Qissada G'afur G'ulomning o'ta serqirraligi va iqtidorining moslashuvchanligi va nasr texnikasidan mohirona foydalana olishi namoyon bo'lgan.



Darhaqiqat, Konstitutsiyamizning 18-moddasida Respublikamizdagi barcha fuqarolarning tengligi e'tirof etilib shunday deyilgan: "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklara ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirilar". Aynan shu norma Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasida belgilanib qo'yilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Respubilkasi Konstitutsiyasining 25-moddasiga muvofiq "Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega" deyiladi. Ayni ushbu normaning ham fundamental asosi biz yuqorida to'xtalib o'tgan muhim xalqaro huquqiy hujjat – Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o'z ifodasini topgan. Insonning erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati oliv qadriyatdir. Hech kim qullikka yoki asoratga solinishi, sudning hukmisiz yoki ruxsatisiz o'zboshimchalik bilan qamoqqa olinishi mumkin emas. Har bir inson erkin bo'lib tug'iladi, shuningdek inson xohlagan joyida istiqomat qilish huquqiga ega. Lekin har doim ham shuni nazarda tutish kerakki, inson qayerda yashamasin, o'sha yerda amal qiluvchi davlatning qonunlariga itoat etishga majbur. Shu bois, G'afur G'ulomning "Sen yetim emassan", "Men yahudiyman" kabi asarlari jahoning juda ko'p tillariga tarjima qilingan, ular fashist boskinchilarini tor-mor keltirishda 2-jahon urushida g'alabaga erishish uchun kuch, ishonch, g'urur va mardlik timsoli bo'lib xizmat qilgan.

Tinchlik, do'stlik va xalq baxtini o'z ijodida kuylagan G'afur G'ulom asarlari biz bo'lajak yuristlar uchun g'urur va iftixor berishi bilan birga ma'naviy dunyoqarashimizni ham rag'batlantiruvchi kuchga aylangan. Joriy 2023-yilda 120 yilligini nishonlar ekanmiz, biz talabalarini o'zaro G'afur G'ulom ijodini kengroq o'rghanishga chorlamoqda. Har bir Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi qalbida G'afur G'ulom nomidan stipendant bo'lish orzusini o'zi ham bunga yaqqol isbot.